

GEFF¹ O‘zbekiston – Ipak yo‘li

Mamlakat:	O‘ZBEKISTON
Loyiha raqami:	49824
Faoliyat sohasi:	Omonat mablag‘lari hisobidan kreditlar (banklar)
Xabarnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi	FI (fiskal vositachilik)
Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:	2018-yil, 12-dekabr
Qaysi bosqichda ekanligi:	Konsepsiya ko‘rib chiqilgan
Loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) chop etilgan sana:	2018-yil, 6-noyabr

Loyiha mazmuni

“Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsion tijorat bankiga O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirish loyihasi (“Loyiha”) asosida 5 million AQSH dollari yoki shuning o‘zbek so‘midagi ekvivalenti miqdorida birinchi tartibli kredit (“Kredit”) ajratish. Mazkur mablag‘dan “yashil iqtisodiyot”ga investitsiya qiluvchi tegishli subyektlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

Loyiha maqsadi

Ushbu Kredit YTTB tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan mamlakatning xususiy sektorga yo‘naltirilgan ilk mablag‘ hisoblanadi. Ushbu ajratilgan mablag‘lardan Loyiha maqsadlaridan kelib chiqqan holda, “yashil iqtisodiyot”ga tegishli investitsiyalarni moliyalashtirish uchun tajribali kichik va o‘rta biznes korxonalarini (KO‘B) kreditlash uchun foydalaniladi.

O‘tish davri ta’siri

Mazkur Kredit quyidagi yo‘nalishlarga yordam berishi kutilmoqda: (i) “Ipak Yo‘li” banki va sub-qarz oluvchilarning “yashil iqtisodiyot” sohasiga qiladigan investitsiyalari samarasini ko‘rsatish; (ii) “Ipak Yo‘li” banki, sub-qarz oluvchilar va vositachilarga “yashil iqtisodiyot”ga oid loyihalarni rivojlantirish va moliyalashtirish borasidagi tajribalarni o‘rtoqlashish;

Mijoz haqida

“IPAK YO‘LI” AKSIYADORLIK INNOVATSION TIJORAT BANKI

“Ipak Yo‘li” banki asosan kichik va o‘rta biznes korxonalariga xizmat ko‘rsatishni ko‘zda tutgan keng tarmoqli tijorat banki bo‘lib, u 1990-yil aprelda tashkil qilingan. Bu bank 2018-

¹ GEFF - Green Economy Financing Facility – “Yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirish loyihasi

yilning iyun oyi oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra, sektor bo'yicha aktivlarning 2%li hissasiga ega bo'lgan, mamlakatdagi 13-eng yirik bank (xususiy banklar ichida 5-eng yirik) hisoblanadi. U jami 14 ta filial va 65 ta mini-bankdan tashkil topgan bo'lib, mamlakat bo'yicha o'z mijozlariga sifatli xizmat ko'rsatib kelmoqda.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'

5 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

5 000 000,00 AQSH dollari

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Tasniflangan FI (ESP 2014). "Ipak Yo'li" banki YTTBning Loyihalarni amalga oshirish talablari (LT) 2,4 va 9-bandlariga amal qilishi, shuningdek, Bankga Yillik atrof-muhit va ijtimoiy soha bo'yicha yillik hisobotlarni taqdim etishi kerak.

Texnik ko'mak

Mazkur Kredit Loyiha asosidagi texnik ko'mak majmuidan foydalanadi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

info@ipakyulibank.uz

+998 71 140-69-00

<http://www.ipakyulibank.com/>

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 2A-uy.

Pochta indeksi: 100017

Biznes hamkorlik

Biznes hamkorlik yoki xarid/ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Davlat sektori loyihalari uchun [YTTBning Xaridlar bo'yicha vebsaytiga](#) tashrif buyuring

Tel: +44 20 7338 6794

elektron pochta: procurement@ebrd.com

Umumiy so'rovlar

YTTB loyihalariga tegishli, xarid/ta'minot masalalari bo'lmagan, boshqa ma'lumotlar uchun:

Tel: +44 20 7338 7168;

Elektron manzil: projectenquiries@ebrd.com

Axborot taqdimlash amallari (ATA)

Axborot taqdimlash amallari YTTBning strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni ommaga qanday taqdim etilishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi. Marhamat qilib, Axborot

taqdimlash amallari sahifasiga tashrif buyuring va Davlat sektori bo'yicha Kengash hisobotini so'rab oling.

[ATA sahifasi](#)

Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi

[Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi](#) YTTBning ma'suliyatni o'z bo'yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxslar va tashkilotlardan olingan YTTB moliyalashtirgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish uchun [Loyiha yuzasidan shikoyat qilish](#) sahifasiga tashrif buyuring. Sizing shikoyat qilish bilan bog'liq savollaringizga, jumladan shikoyatni qanday topshirish va uni ro'yxatdan o'tkazish hamda muvofiqlik mezonlari yuzasidan Shikoyatlar bilan ishlovchi mas'ul mutaxasis (pcm@ebrd.com) [Shikoyat qilish tartibiga](#) muvofiq javob beradi.